ham uyg‘unlashadi. Ya’ni, “Xavfsizlikni ma’naviyat nuqtayi nazaridan tahlil qilish, uning olam bir butunligi, yaxlitligining tayanchi ekanini e’tirof etishga olib keladi. Xavfsizlik insonning, moddiy-ma’naviy imkoniyatlarini, bilimi, tafakkurini ro‘yobga chiqarish imkoniyatidir” [7;633-b.].

Axborotlashgan jamiyatda xavfsizlik paradigmasining ijtimoiy-falsafiy talqini zamonaviy kommunikativ muhitning transformatsion xarakteri va axborot oqimlari ustidan hukmronlikning insoniyat ontologyasi va madaniy tafakkuriga ko‘rsatgan chuqur ta’siri bilan belgilanadi. Bugungi raqamli realilik sharoitida xavfsizlik nafaqat tashqi tahdidlar yoki harbiy xavf-xatarlarga qarshi kurash doirasida, balki axborot oqimining semantik sifati, epistemik aniqligi va ijtimoiy ongda barqaror identitetlar va haqiqat modellari yaratish jarayonida ham asosiy mezon sifatida ko‘riladi. Professor Lalixon Muhamedjonovaning nazariy yondashuvi bugungi xavfsizlik paradigmasi uchun dolzarbdir: u shunday yozadi: “Raqamli jamiyatda yolg‘on ma’lumotlar va feyk yangiliklarning tarqalishi og‘riqli muammolardan biri hisoblanadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan noto‘g‘ri ma’lumotlar jamiyatda xato tushunchalar, nafrat, ziddiyat va ijtimoiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Bunday ma’lumotlarning keng tarqalishi esa fuqarolarning ishonchini kamaytirib, axborot manbalarining ishonchliligini shubha ostiga qo‘yadi” [8]. Bu fikrni axborotlashgan jamiyat sharoitida talqin qilsak, xavfsizlik bu axborotli mavjudlikning estetik, yetik va kognitiv muvozanatida saqlanishidir.

Xulosa (Conclusion). Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, axborotlashgan jamiyat sharoitida xavfsizlikni ijtimoiy-falsafiy anglash uni faqat texnik himoya mexanizmlari majmui sifatida emas, balki insonning raqamli makondagi erkin mavjudligi, mustaqil fikrlashi, ijtimoiy-identifikatsion yaxlitligi va kommunikativ faoliyatining barqarorligini ta’minlovchi ko‘pqatlamli ijtimoiy fenomen sifatida talqin etishni taqozo qiladi. Mazkur yondashuvning mohiyati texnologik himoya choralarinigina takomillashtirishda emas, balki axborotni idrok etish, baholash va undan foydalanish jarayonlarida shaxsning epistemik avtonomiyasi va ongli tanlov qobiliyatini mustahkamlash bilan belgilanadi.

Shu nuqtayi nazardan, axborot xavfsizligi jamiyatda bilim, axborot va qadriyatlarning shakllanishi hamda uzatilishi ustidan mas’uliyatli ijtimoiy nazoratni ta’minlash bilan birga, insonning axborot makonidagi subyektivligini himoya qiluvchi muhim aksiologik tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli kommunikatsiyalar jadallashgan sharoitda axborot oqimlarining ko‘payishi va mazmuniy jihatdan murakkablashuvi shaxsning haqiqatni anglash mezonlari, ijtimoiy ishonch va qadriyatlarga munosabatini ham qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Demak, xavfsizlikning zamonaviy paradigmasi texnologik barqarorlikni insonparvarlik, intellektual mustaqillik, axborot mas’uliyati va ijtimoiy ishonch tamoyillari bilan uyg‘unlashtiruvchi integrativ konsepsiya sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Jurakulov J.K. Axborotlashgan jamiyatda inson ma’naviy borlig‘ining ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Falsafa doktori (PhD) disser. avtoref., Toshkent, 2023, 48-bet.

(2). Зиатдинов Д.Ф. Теоретические подходы к проблемам безопасности в международных отношениях: концепция безопасности человека. Мировая политика. Москва, 2020, №4, с. 32–52. URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=33703

(3). Nurullayev H.U. “Xavfsizlik – ijtimoiy-ma’naviy tahlil. Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar mavzusidagi” respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi. Vol. 1, № 7 (2025), 421–426-betlar.

(4). Castells M. The Rise of the Network Society, 2nd Edition, with a New Preface. Wiley-Blackwell, 2010, 656 pp.

(5). Tursunova Sh.B. Raqamlashtirish sharoitida axborotlarning ijtimoiy barqarorlikka ta’siri. “Innovatsiya va taraqqiyot”, ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal, Urganch, 2026, vol. 4, №4, p. 294-8, https:// adabiyot xazinasi.com/index.php/inno/article/view/1242

(6). Kodirov N.M. Yoshlar ma’naviyatga qarshi qaratilgan axboriy tahdidlarga qarshi kurashning zamonaviy usullari va vositalari (xorijiy va milliy tajriba). “Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi”, Namangan, 2024, maxsus son, 652–655-betlar.

Gadoyeva Lobar Ergashevna (Buxoro Tibbiyot instituti dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); lobar.gadoyeva@oxu.uz)

SOG‘LOM TURMUSH TARZINING ETNOSOTSIAL VA ANTROPOPSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy jamiyat taraqqiyotida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishning etnosotsial va antropopsixologik omillari ijtimoiy-falsafiy hamda fanlararo yondashuvlar asosida tahlil etilgan. Tadqiqotda milliy an’analar, etnomadaniy qadriyatlar va turmush tarziga oid tarixiy-sotsial taj-*

ribaning inson salomatligini muhofaza qilishdagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, shaxsning antropologik tabiatiga mos ravishda uning emotsional-psixologik holati, iroda kuchi hamda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarining salomatlik madaniyatiga ta'siri asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *sog'lom turmush tarzi, etnosotsial omillar, antropopsixologiya, salomatlik madaniyati, milliy qadriyatlar.*

ЭТНОСОЦИАЛЬНЫЕ И АНТРОПОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ

Аннотация. *В данной статье на основе социально-философского и междисциплинарного подходов анализируются этносоциальные и антропопсихологические факторы формирования здорового образа жизни в условиях современного развития общества. В исследовании раскрывается роль национальных традиций, этнокультурных ценностей и историко-социального опыта организации быта в сохранении и укреплении здоровья человека. Особое внимание уделено антропологической природе личности, влиянию её эмоционально-психологического состояния, волевых качеств и навыков саморегуляции на культуру здоровья.*

Ключевые слова: *здоровый образ жизни, этносоциальные факторы, антропопсихология, культура здоровья, национальные ценности.*

ETHNOSOCIAL AND ANTHROPOPSYCHOLOGICAL ASPECTS OF A HEALTHY LIFESTYLE

Annotation. *This article presents an interdisciplinary and socio-philosophical analysis of the ethnosocial and anthropopsychological dimensions of establishing a healthy lifestyle within contemporary societal development. The research explores the significance of national traditions, ethnocultural values, and historical-social lifestyle patterns in safeguarding human health. Furthermore, it examines how individual psychological states, emotional resilience, personal volition, and self-regulatory skills influence health culture in alignment with human anthropological nature.*

Key words: *Healthy lifestyle, ethnosocial factors, anthropopsychology, health culture, national values.*

Kirish. Yangi O'zbekistonni barpo etish va inson kapitalini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish sharoitida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish masalasi tor tibbiy doiradan chiqib, kompleks etnosotsial va antropopsixologik hodisa sifatida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning markaziga chiqmoqda. Globallashuv va sotsiokultural o'zgarishlar davrida milliy qadriyatlar hamda oilaviy-jamoaviy an'analar salomatlikni saqlashning tashqi ijtimoiy ustuni hisoblanadi. Insonning ruhiy muvozanati, irodasi va self-menedjment ko'nikmalari esa salomatlik madaniyatining ichki psixologik poydevorini belgilaydi. Etnosotsial muhit bilan shaxsiy antropopsixologik imkoniyatlarning uyg'unligi yoshlarda salbiy odatlarga qarshi immun muhitini yaratib, o'z salomatligiga mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sog'lom turmush tarzini etnosotsial va antropopsixologik mezonlar asosida o'rganish gumanitar fanlarning dolzarb yo'nalishlaridandir. Sharq mutafakkirlari hamda I.S Saifnazarov, Q.N.Nazarov kabi olimlar milliy qadriyat va oilaviy muhitni salomatlikning tashqi sotsial tayanchi deb baholasa, M.M.Qahhorova hamda G.M.Ruzmatova tadqiqotlarida ruhiy barqarorlik va shaxsiy iroda ichki antropopsixologik omil sifatida tahlil etiladi. M.X.Ismoilov va O.R.Toshmatov esa raqamlashtirish sharoitida etnik hamda psixologik omillar uzviyligini asoslagan. Etnosotsial muhit va shaxsiy psixologik salohiyatning dialektik birligi Yangi O'zbekistonda barkamol avlodni shakllantirishning muhim metodologik poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini dialektik bilish, tizimli va aksioligik yondashuvlar hamda fanlararo tamoyillar tashkil qiladi. Ijtimoiy-madaniy jarayonlar qiyosiy hamda sotsiologik tahlil usullarida, shaxsning ruhiy barqarorligi va o'z-o'zini boshqarish imkoniyatlari esa psixologik-sintetik metodlar vositasida o'rganildi. Mazkur yondashuvlar majmui milliy an'analar bilan shaxsiy psixologik omillar mutanosibligini baholash va sog'lom turmush tarzining ilmiy modelini yaratishga imkon berdi.

Tahlil va natijalar. Sog'lom turmush tarzining etnotibbiy xususiyatlari uning milliy ijtimoiy (etnosotsial) va shaxs hayot tarzining psixologik (antropopsixologik) jihatlari ham borligini inkor qilmaydi. Sog'lom turmush tarzi alohida ajralgan voqelik emas, balki shaxs va jamiyatning salomatlikka munosabati orqaligina ijtimoiy mazmun kasb etadi. Inson sihat-salomatligi hamda xastaliklari uning jismi va ruhiyatida, shuningdek, uni qurshagan tabiiy va ijtimoiy olamda kechuvchi murakkab ichki va tashqi jarayonlar mahsulidir. Shu bois tibbiy madaniyatni tahlil qilishda tabiiy, ijtimoiy hamda individual ong qonuniyatlarini yaxlit holda e'tiborga olish talab etiladi.

Sog‘lom turmush tarzining etnosotsial va antropopsixologik omillari o‘zaro bog‘liq ikki bosqichda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, zamonaviy jamiyatda inson salomatligi asosiy taraqqiyot mezoniga aylanib, umuminsoniy tamoyillardan tashqari milliy-tarixiy va etnohududiy an’analarga tayanadi. Ikkinchidan, sog‘lom turmush tarzini tanlash majburiy bosim orqali emas, balki shaxsiy anglash va ijtimoiy imkoniyatlarning mutanosibligi natijasida yuzaga keladigan daxlsiz huquqdir.

Etnosotsial voqelik sifatli oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi va aholi salomatligi talablariga mos keluvchi ijtimoiy siyosat bilan mustahkamlanadi. Oziq-ovqat xavfsizligi standartlarini joriy etish noto‘g‘ri ovqatlanish va turli xastaliklarning oldini olishda muhim huquqiy kafolat beradi. Shuningdek, milliy tibbiyot tizimini zamonaviylashtirish, jumladan yuqori texnologik operatsiyalar va transplantatsiya amaliyotlarini kengaytirish aholining o‘rtacha umr davomiyligini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Etnosotsial muhitda jismoniy tarbiya va salomatlik madaniyati har bir xalqning milliy-tarixiy tajribasiga tayanadi. Masalan, sharqona etnomadaniyatda jismoniy faollik ruhiy xotirjamlik va ma’naviy balansni ta’minlash bilan uzviy bog‘liqdir.

Sport va sog‘lomlashtirish maskanlarida mashg‘ulotlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun shifokor nazorati hamda klinik, antropometrik va funksional diagnostika usullaridan foydalaniladi. Bu inson organizmining individual imkoniyatlarini baholash va ortiqcha jismoniy zo‘riqishlarning salbiy oqibatlarining oldini olish imkonini beradi. Shu bilan birga, ma’naviy-madaniy maskanlar va hordiq chiqarish tadbirlarini ruhiy-emotsional qayta tiklash usullari bilan uyg‘unlashtirish zamonaviy stress hamda tushkunlik holatlarini bartaraf etishda muhim o‘rin tutadi. Aholining kam ta’minlangan qatlamlari va nafaqaxo‘rlarni manzilli ijtimoiy muhofaza qilish ijtimoiy tabaqalanishning oldini oladi va salomatlik madaniyatini ommalashtirish uchun teng imkoniyatlar yaratadi. Gippokrat hamda Ibn Sino ta’limotlarida uqtirilganidek, salomatlikni saqlash va barkamol avlodni voyaga yetkazish har bir shaxsning o‘z turmush tarziga mas’uliyatli munosabatiga bog‘liqdir.

Sog‘liqni saqlash tizimi nafaqat klinik tibbiyot yutuqlari, balki jamiyatning iqtisodiy, siyosiy hamda ma’naviy-falsafiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish ustuvor vazifa bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda bu jarayon “salomatlik akme moduli” sifatida talqin etiladi. Uni amaliyotga joriy qilish tibbiy-pedagogik qonuniyatlar va huquqiy me’yorlarga tayansada, sog‘lom hayot tarzi, baribir, har bir insonning shaxsiy ehtiyoji, qiziqishi va anglangan hayotiy tanlovi mahsulidir.

Barkamol avlod va sog‘lom turmush tarzi modellarining gipotetik asoslari shaxs hamda jamiyat kamolotini insonparvarlik tamoyillari asosida shakllantirishga xizmat qiladi. Mustaqillik yillarida o‘tmishdagi unumsiz ekologik va ijtimoiy-tibbiy siyosat asoratlari, xususan, Orolbo‘yi fojiasining salbiy oqibatlarini bartaraf etish hamda aholi salomatligini tiklash davlatning ustuvor vazifasiga aylandi.

Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan islohotlar ikkita asosiy bosqichni qamrab oladi:

Birinchi bosqichda (1991–1998) profilaktik meditsina qayta tiklanib, ona hamda bola muhofazasi kuchaytirildi. Ma’rifiy dasturlar va davlat mukofotlari ta’sis etilib, etnotibbiy merosdan foydalanilishi natijasida onalar va bolalar o‘limi qisqardi, biroq ayollar o‘rtasida xastaliklar saqlanib qolishi keyingi choralar zarurligini ko‘rsatdi.

Ikkinchi bosqichda (1998–2009) qishloq vrachlik punktlari tarmog‘i shakllantirilib, shoshilinch yordam va skrining xizmatlari yo‘lga qo‘yildi hamda tibbiy-ma’rifiy targ‘ibot sifati oshirildi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy va tibbiy islohotlar inson salomatligini oliy qadriyat darajasiga ko‘tarib, genofond muhofazasini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirdi.

Oila kodeksi hamda tegishli hukumat qarorlari asosida nikohlanuvchilarning 5 ta asosiy xastalik bo‘yicha majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tishi joriy etilishi kelajak avlod salomatligini saqlash va ijtimoiy muhofazalashning huquqiy kafolatiga aylandi. Sport infratuzilmasining rivojlanishi bolalarning jismoniy tarbiya bilan qamrab olinishini 34 foizdan 63 foizga oshirdi. Yillar kesimida e’lon qilingan maqsadli davlat dasturlari esa sobiq sho‘rolar davridagi ma’muriy bosim va salomatlikni ikkinchi darajaga surish amaliyotiga barham berdi.

Islohotlarning uchinchi bosqichida (2010–2016) qabul qilingan “Barkamol avlodni tarbiyalash konsepsiyasi” yoshlar salomatligi va ta’lim-tarbiyasini yaxshilashga yo‘naltirildi. Bu sa’y-harakatlar Harakatlar strategiyasining 4-ustuvor yo‘nalishi doirasida mantiqiy davom ettirilib, ijtimoiy himoya, tibbiyot, ta’lim va ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda inson bilan tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni saqlashning zamonaviy mexanizmlarini shakllantirdi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, sog‘lom turmush tarzining etnosotsial va antropopsixologik jihatlarini ijtimoiy-falsafiy doirada tahlil qilish inson salomatligi va hayotiy faoliyati faqat biologik jarayon bo‘lmay, balki milliy-madaniy ildizlar hamda ichki ruhiy holatlarning murakkab sintezi ekanini ko‘rsatadi. Etnosotsial omillar asriy qadriyat hamda urf-odatlar orqali jamoaviy salomatlik poydevorini shakllantirsa, antropopsixologik xususiyatlar shaxsning ruhiy barqarorligi va o‘z sog‘lig‘iga bo‘lgan mas’uliyatini belgilaydi. Ushbu milliy-madaniy tajriba hamda individual psixofizik imkoniyatlarning mutanosibligi zamonaviy o‘zgarishlar davrida milliy genofondni asrash va komil insonni voyaga yetkazishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2021, 416-bet.

(2). Муҳиддинов А. Тиббий маданият фалсафаси. Тошкент, Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2009, 12-бет.

(3). Ўзбекистонда биринчи марта жигар плантацияси муваффақиятли ўтказилди. “Халқ сўзи,” 25 февраль 2018, 1-бет.

(4). Yuldashev S.S. Zamonaviylik va inson salomatligi muhofazasi: ijtimoiy tahlil. Ilmiy risola, Toshkent, “Akademnashr”, 2021, 83-bet.

(5). Alimov X.R. Milliy genofondni muhofaza qilishda sog‘lom turmush tarzining o‘rni. Monografiya, Toshkent, “Tafakkur”, 2022, 145-bet.

(6). Umarov B.M. Yoshlar psixologiyasi va sog‘lom hayot tarzi ko‘nikmalari. Ilmiy to‘plam, Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2023, 120-bet.

Jo‘rayev Ahmad Muhammadiyevich (Vatan universiteti dotsenti, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri; ORCID - 0009-0004-7341-0876, juraev.1982@mail.ru)

TASAVVUF TA’LIMOTIDA BAG‘RIKENGLIK, INSONPARVARLIK VA DINLARARO MULOQOTNING FALSAFIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada tasavvuf ta’limotida shakllangan bag‘rikenglik, insonparvarlik, mehr-oqibat va dinlararo totuvlik g‘oyalarining falsafiy mazmuni tahlil qilindi. Tasavvufning insonning ichki dunyosini poklash, nafsni tarbiyalash va ruhiy kamolotga erishish haqidagi qarashlari uning boshqa insonlarga nisbatan hurmat, hamjihatlik va bag‘rikenglik munosabatlarini shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berildi. Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Bahouddin Naqshband va Alisher Navoiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, tasavvufda insonning diniy, milliy yoki ijtimoiy mansubligidan ko‘ra uning axloqiy-ma’naviy fazilatlariga ustuvor ahamiyat berilishi ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari tasavvufiy qadriyatlarning zamonaviy bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishda ma’naviy-axloqiy resurs sifatida foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *tasavvuf, bag‘rikenglik, insonparvarlik, dinlararo muloqot, ma’naviy kamolot, komil inson, muhabbat, axloq.*

ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ИДЕЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ, ГУМАНИЗМА, МИЛОСЕРДИЯ И МЕЖРЕЛИГИОЗНОГО СОГЛАСИЯ

Аннотация. *В статье анализируется философское содержание идей толерантности, гуманизма, милосердия и межрелигиозного согласия, сформировавшихся в рамках суфийского учения. Обосновывается положение о том, что суфийское понимание очищения внутреннего мира человека, воспитания его духовных качеств и достижения духовного совершенства способствует формированию уважительного, солидарного и толерантного отношения к другим людям. Посредством сравнительного анализа взглядов Ахмада Яссави, Джалаладдина Руми, Бахауддина Накшбанда и Алишера Навои показано, что в суфийской традиции приоритетное значение придаётся нравственно-духовным качествам человека, а не его религиозной, национальной или социальной принадлежности. Результаты исследования демонстрируют возможности использования суфийских ценностей в качестве духовно-нравственного ресурса формирования современной культуры толерантности.*

Ключевые слова: *суфизм, толерантность, гуманизм, межрелигиозный диалог, духовное совершенствование, совершенный человек, любовь, нравственность.*

PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE IDEAS OF TOLERANCE, HUMANISM, MERCY, AND INTERRELIGIOUS HARMONY

Annotation. *The article analyzes the philosophical content of the ideas of tolerance, humanism, compassion, and interreligious harmony developed within the Sufi tradition. It substantiates the view that*